



“Involta” Ilmiy Jurnal

Vebsayt: <https://involta.uz/>

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA TALMIH SAN'ATINING QO'LLANISHI

Komiljonova Komila G'ofur qizi

Xorazm viloyati Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Abstract: This article provides researches about the using of the esthetic arts which are called «talmih» in the poems of «Yoshlik devoni» by Erkin Vohidov. And shows an importance of this art in impressing feelings and describing the scenery.

Key words: talmih, noetic, verbally, historical people, important events.

Annotatsiya: Maqolada Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni»da qo'llanilgan talmih san'ati namunalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, devondan olingan misollar ham atroflicha izohlangan. Talmih san'atining badiiy qiymati va devonda tutgan o'rni asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: talmih, ma'naviy, lafziy, tarixiy shaxslar, muhim voqealar.

Mumtoz adabiyotimizda azal-azaldan badiiyat masalasiga alohida e'tibor berib kelingan. Ijodkorning iste'dodiga baho berishda uning she'riy san'atlardan foydalanish mahorati asosiy mezonlardan biri sifatida qaralgan. Chunki she'riy san'atlar misralar, baytlar va bandlarning jarangdorligi va musiqiyligiga, ma'naviy va lafziy nazokatga ega bo'lishiga xizmat qilgan. “Ilmlar uchligi”ning tarkibiy qismi

bo‘lmish ilmi bade’da she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’ati talmih hisoblanadi. Bu san’at haqida fors adabiyotshunosi Atoullloh Husayniy shunday fikr bildirgan: “Talmih lug‘atta bir nimaga nazar solmoqtur va bu san’atta she’r va andin o‘zga nimalarga ishorat etilgani uchun ani talmih deb atapturlar”¹.

Talmih san’ati aruz vaznida yozilgan zamonaviy adabiyot namunalarida ham keng istifoda qilinadi. Biz buni XX asrning ulug‘ shoirlaridan biri Erkin Vohidov ijodida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, uning aruz vaznida yozilgan she’rlari jamlangan “Yoshlik devoni”da lafziy va ma’naviy san’atlarning turlari bo‘lmish tazod, mubolag‘a, irsoli masal, istiora, tajnis, tarse’, tashbih, iyhom, nido, ishtiyoq va shu jumladan, talmih san’ati vositasida ham go‘zal ifodalar yaratilgan. Devon “Debocha”sidayoq talmih san’ati yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida,
Kulmangiz, ne bor senga deb **Mir Alisher** yonida. [1,61]*

yoki:

*Ey munaqqid, sen g‘azalni ko‘hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham **Odam Atodin** qolgan inson qonida. [1, 61]*

Yuqorida keltirilgan 1-baytda shoir Alisher Navoiy nomini tilga olish bilan o‘zining devonni tuzishdagi badiiy maqsadini aytib o‘tsa, keyingi baytda payg‘ambar alayhissalom Odam Ato nomini keltirib, ul zotning yer yuziga tushgan birinchi inson ekanligini nazarda tutgan holda sevgining va unga mutanosib tarzda g‘azalning ham Odam Ato davridan paydo bo‘lganligiga, ya’ni qadimiy ekanligiga ishora qiladi. Talmih san’atining bunday go‘zal ifodalarini devon davomida ko‘plab kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotshunos Anvar Hojiahmedov talmih san’ati haqida fikr yuritar ekan, shunday degan edi: “Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko‘pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiy va Uzro”, “Tohir va

¹ A. Husayniy. Badoye us-sano‘ye. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1981. 135-bet

Zuhro” kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar...”²
Darhaqiqat, bunday holatni Erkin Vohidov ijodida ham kuzatishimiz mumkin.

Masalan,

1) *Sevgi sahrosida qolmish necha **Majnundin** g‘ubor,*

*Necha **Farhod** gardi yotgay Bisitunning tog‘ida.* [1, 62]

2) *Gar sog‘inchim sharhin aytsam, yondirar **Farhod** o‘zin,*

*Yo ochay **Majnung‘a** dardim, ul-ku mendan sog‘rog‘.* [1,112]

Yuqoridagi baytlarda Majnun va Farhod obrazlari orqali ular bilan bog‘liq ishq qissalariga ishora qilingan. Bu ikki qahramon nomlari ko‘p hollarda yonmayon qo‘llanilib, tasvirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. 1-misolda shoir sahroda Majnunning, Bisitun tog‘ida Farhodning izi qolganini ta’kidlab, sevgi tuyg‘usining nom-nishonsiz yo‘q bo‘lib ketmasligini nazarda tutsa, 2-misolda lirik qahramon o‘z dardining salmog‘ini ifoda etar ekan, agar dardini Farhodga aytsa, u o‘zini yondirishini, Majnun esa lirik qahramondan ancha sog‘roq ekanligini ta’kidlaydi.

Yoki:

a) *O‘yladim shu tong necha yil dasht-u sahrolar kezib,*

*Taklifi sayl aylamabdir ne uchun **Qays Layliga**.* [1,68]

Ushbu misralar orqali shoir tongda xayol surayotgan lirik qahramon holatini tasvirlar ekan, Qaysning Layliga sahro sayrini taklif qilmaganiga hayratini yashirmaydi.

b) *Ulfatimdir sham yanglig‘ kechalar tanho qalam,*

*Men-ku she‘r **Majnunidirman**, sarvqad **Laylo** qalam.* [1,84]

Bu misolda shoir o‘zini Majnunga, qalamini Layliga o‘xshatadi va she‘riyatga bo‘lgan muhabbatini shu ikki oshiq timsoli orqali yaqqol namoyon qiladi.

² A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. -Toshkent: Sharq, 1999. 41-bet.

c) *Jahonda ikki dilbarning biri sensan, biri **Laylo**,*

*Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri **Majnun**. [1,94]*

Bu baytda esa lirik qahramon o‘zini Majnun kabi oshiq yigit, mahubasini Layli kabi dilbar qiz sifatida tasvirlagan va o‘z muhabbatini faqat Layli va Majnun sevgisiga teng kela olishini zimdan berib o‘tgan.

d) *Qilmadim bir bor o‘shal gul yuzli zebo birla sayr,*

*Qonmagay dil, aylasam ming bitta **Laylo** birla sayr. [1,98]*

Erkin Vohidovning talmih qo‘llashdagi mahorati yuqoridagi baytda yanada yorqinroq ifoda topgan. Chunki unda shoir o‘z ma‘shuqasining o‘zi uchun tanho va boshqalarga o‘xshamas ekanligini tasvirlay turib, bir bora mahbuba ila qilingan sayrni ming bitta Laylo bilan sayr qilishdan afzal ko‘radi.

e) *Sevgi vodiysida menga teng bo‘logay qaysi **Qays**?*

Ko‘nglim ochsam, ikki dunyo bu kabi afsona yo‘q. [1,110]

Ushbu baytda esa lirik qahramon ishqda Majnunga aylangan oshiq Qaysdan ham o‘zining yoriga bo‘lgan muhabbatini kuchliroq sanaydi, ikki dunyoda ham ishq haqida o‘zinikiga o‘xshash afsona yo‘qligi bilan iftixor etadi.

f) *Kulib yurgay edim bir vaqt o‘qib **Majnun** jununidan,*

Degaylar, o‘zgin kulma, o‘zingdan bo‘lmayin ogah. [1,113]

Ushbu baytlarda ijodkor “Layli va Majnun” ishq qissasiga ishora qilgan bo‘lsa, quyidagi misollar “Farhod va Shirin” dostoniga o‘quvchi diqqatini tortmay qolmaydi:

1) *Tirilsa nogahon **Farhod** yuzingni ko‘rsa ko‘zguda,*

*Kechib **Shirinidan** yuz yil ko‘yingda darbadar bo‘lg‘ay. [1,78]*

Bu baytda ifodalangan talmihni tushunish uchun “Farhod va Shirin” dostoni voqealarini eslashimiz lozim. Ya‘ni dostonida Farhod Shirinning jamolini tilsim

oykada ko‘rib, oshiq bo‘lib qoladi va unga erishish uchun safarga otlanadi. Shoir o‘sha voqeaga ishora qilgan ekan, ma‘shuqasini Shirindan ham go‘zalligiga ishonch bilan agar Farhod tilsim oynada Shirinni emas, lirik qahramonning yorini ko‘rsa, ko‘ngliga ishq olovi tushgan va albatta, o‘z Shirinidan kechib, yuz yil darbadar yurgan bo‘lar edi, degan nafis ifodani keltiradi.

2) *Lahzai hijron yukiga **Bisitun** ukparchadir,*

Bir qadoqlik toshcha kelmas, yer bila osmon yuki. [1,79]

Keltirilgan misralarda esa Erkin Vohidov aynan Farhod va Shirin nomlarini keltirmay turib, ular bilan bog‘liq ish dostoniga ishora qiladi. Ya‘ni shoir o‘zining bir lahzalik hijronining og‘irligini ko‘rsatib berishda Farhod qazgan ulkan tog‘ – Bisitun nomidan foydalanadi. Natijada, ayriliq yukining mashaqqati va zalvori haqidagi mumtoz tasvir paydo bo‘ladi.

Keltirilgan misollarda qo‘llanilgan talmeh san‘ati fikrni yanada ta‘sirchan va jozibali qilishga, o‘quvchi xayolida lirik qahramon holatini yanada yaxshiroq gavdalantirishga, shuningdek, baytlarning badiiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Qolaversa, baytlarda Layli, Majnun, Farhod, Shirin kabi obrazlar talmih sifatida qayta-qayta foydalanilgan bo‘lsa-da, ularning hech biri tasvir bobida bir-birini takrorlamaydi va har biri alohida originallik kasb etgan.

Erkin Vohidov o‘z g‘azallarida talmeh san‘atidan foydalanish orqali nafis badiiy ifodalar yarata olgan va ana shu jihati bilan ham uning asarlari ilmi bade‘ talablariga mos keladi. Qolaversa, ijodkor asarlarida an‘anaviy talmih san‘ati namunalaridan tashqari noan‘anaviy namunalarni ham ko‘rishimiz mumkinligi, bu asarkarning o‘quvchilar ko‘nglidan joy olish va umrboqiylik xususiyatlarini oshira olgan va zamonaviy mumtoz adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Shuning uchun ham bu g‘azallarni, umuman, ijodkorning “Yoshlik devoni” to‘plamini o‘rganish adabiyotshunosligimizda dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018.
2. A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. A. Husayniy. Badoye us-sano‘ye. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1981.